

BADIIY PSIXOLOGIZM TUSHUNCHASI VA UNING BADIIY ASARDAGI
O’RNI

Orifjonova Zilola Rasuljonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada A.Qahhor ijodi xususan hikoyalarining badiiy talqini haqida fikr yuritilgan. Hikoyalarida xalqimizning go'zal an'ana, qadriyat va urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlar turli insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarda tasvirlanadi. A.Qahhor hikoyalarida keltirilgan epigraflar asar mazmunini muhtasir bayon etibgina qolmay uning mazmunini yanada boyitgan. "Anor", "To'yda a'za", "Nurli cho'qqilar", "Mahalla", "Ming bir jon", "So'ngan vulqon", "Ighvogar", "Og'ri", "Bemor" kabi hikoyalari xalqimizning uzoq o'tmishi va buguni haqida haqqoniy manzaralarni yoritib beradi.

Abstract: This article reflects on the artistic interpretation of A. Kahhor's works, especially the stories. In his stories, the beautiful traditions, values and customs of our people, universal human values are described in the interactions between different people. The epigraphs in the stories of A. Kahhor summarize the content of the work. "Pomegranate", "Party at the wedding", "Nurli Chokkilar", "Neighbourhood", "A thousand souls", "Extinguished volcano", "Ighvogar". Stories like "Pain" and "Patient" shed light on the true scenes of our nation's long past and present day.

Har bir insonni yetuk shaxs sifatida shakllanishda yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishida har qanday adabiy asar emas, balki chinakam adabiyot talablariga javob beradigan insonni ezgu maqsadlar tomon eltadigan, ongi va shuurini munavvar etadigan asarlar zarurdir.

So'z qudrati cheksiz Buyuk adibimiz A.Qodiriyning so'zlash va yozish odobi ga doir „So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak degan hikmatlari kishini o'yga soladi. Har bir insonning o'z olami ichki dunyosi bor. O'sha botiniy olamning barcha go'zalligi shu qalb sohibining ma'naviyatiga bog'liq bo'ladi. Ma'naviyat esa nafaqat bir vujud balki butun bir xalq millatning ruhi, qudrati, kuchidir.

Ma'naviyatni yuksaltiruvchi kuch esa shubxasiz badiiy adabiyotdir. O'zbek adabiyoti tarixga nazar tashlasak nomlari-yu e'tiroflari misralarga sig'mas ulug' adabiyotdarg'alari bisyor. Ulug' adiblarimizdan biri Abdulla Qahhor shunday ijodkorlardan biridir.

O'zbek nasriy adabiyotini, xususan hikoyachi ligini yuksaltirgan, badiiy ijodda o'z ovozigina, o'z ijod uslubiga ega yozuvchining hikoya qilsa va romanlari ne-ne buyuk qalam ahliga mahorat maktabi vazifasini o'tagan.

A.Qahhor hikoyalarini mutolaa qilgan ekanman ko'z ongimda milliy mentalitetimizga xos bo'lgan urf-odat, an'analarimiz, soda samimiy qalb so'zidek halol tanti dilkash insonlar gavdalanadi. A.Qahhor hikoyalari mehnatkash, orif, bag'rikeng, samimiy, ahamiyatli o'zbek xalqining su'rati siyratini chizib beradiso'z qudrati ila. Yozuvchi nafaqat mahorat bilan tasvirlaydi, balki, asarlarida tom-tom maqsadlar to'plamida uchramaydigan naql, hikmatlar va betakror kechirimlarni personajlar nutqiga kiritadi va bu asarning jonliligi va jozibadorligini oshirdi. Asarning jonliligi va mazmunini boyitgan yana bir narsa bu



hikoyalarda berilgan epigraplardir. Sheriy to'rtlik, maqol hikmatli so'zlar asosida keltirilgan epigraplar nafaqat hikoya mazmunini o'zida muxtasar jamlangan balki uning badiiy qudratini oshirgan.

„Otning o'limi itning bayrami, „O'g'li „Osmon uzoq - yer qattiq, „Bemor Sotiboldi.

Uylar to'la non, och-nahorim, balom

Ariqlar to'la suv tashnaizorim, bolam

„Anor hikoyasida Turobjonning anorga bosh qorong'i bo'lgan xotini, Ziri behuda miyon meshi hand To'yda aza hikoyasida

Goh yer mehrini o'ylarkan

Esga tushar dorning sayog'i

Ajab hikmat , odamlar o'larkan

Uzulgan yerda – oyog'i

A.Oripovning ushbu to'rtligi „ Nurli cho'qqilar hikoyasida o'qib o'ziga bino qo'yib ota-ona , qishloq ahli, hatto oilani mensimay Zuxra ismli qizning yolg'iz va fayzsiz hayoti tasvirlanadi . Urf-odat an'analarni „fiodallik deb keladigan bu qiz osmondagi nurli cho'qqiga intilib yerdagi to'g'rirog'i yondagi aziz insonlarini yo'qotadi bir umrga.

Inson bilan tirikdir inson

Muhabbatdan hayotning boshi

Odamzodga baxsh etadi jon

Odamlarning mehr quyoshi

Erkin Vohidovning ushbu to'rtligi epegraf qilib berilgan „Mahalla hikoyasida esa bu 53-yil birga yashagan turmushning zalvorli yuklarini birga olib o'tgan Hikmat buvaning Rohat buvaning kutulmaganda ajrab qolishi va bu ayriliqning Hikmat buviga qattiq ta'sir qilgani hatto bir kuni tongda borib qabristonda Rohat buvi qabri yonida o'ziga go'r qaziganibundan farzandlari va mahalla ahli qattiq havotirga tushgani tasvirlanadi. Odamlar orasida rangsiz , darmonsiz o'tirgan Hikmat buviga kasbi shifokor bo'lgan qo'shnisi shunday deydi. onaxonimiz tarifga sig'mas inson edilar ammo lekin otaxon maxallamizga biron chelakli samovar kerak. O'sha kuni juda-juda bilindi „Mahalladan pul yig'sak xonadonga necha puldan tushadi.

Cholning ahamiyati qo'zg'ab ketdi. Shu kundan boshlab avvali samovardan boshlangan harakat Hikmat buva boshchiligida yana ko'pgina xayirli ishlarga ulanib ketadi. Bemorlarni davolagan shifokor Hikmat buvaning „dardini davosi shunda ekanligini bilar edi. Oxiri bir kun Hikmat buva qabristondagi qari baqaterak ostida o'zining nomiga qazilgan qabrni qabriston idorasiga azbarayi foydalanish uchun topshirishini xat orqali malum qiladi. Odamga odam quvvat bo'ladi deganlaridek Hikmat buvaning so'ngan umidi shijoati, mahalla va mahalladoshlarining muhri, ishonchi va e'tibori bilan qaytadan uyg'onadi.

Agar yozuvchi o'z asarlarida ma'lum bir davrdagi voqea – hodisani shunchaki bayon qilsa uslubiy bo'yoqdor so'zlar bilan badiiy obroz yaratgan taqdirda ham u yuksak ijod mahsuli bo'lishi uchun badiiy psixologizm bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Ma'lumki har qanday yetuk adabiy asarning bosh g'oyasai, teran mazmunini personajlarning karakteri



ochib berish uchun esa yozuvchi da ijod psixologiyasi, qalb diolektikasi yuksak shakllangan bo'lishi kerak.

Badiiy psixologizmning kelib chiqishi , shakllanishi albatta uzoq davrni o'z ichiga oladi. Rus adabiyotshunosligida psixologizm tushunchasi qariyb 200 yil oldin kirib kelgan bo'lsa bu muommoni ilm dunyosiga olimlar A.A.Potebney, D.N.Ovliyaniko Kulikovskiy olib kirgan. Rus adabiyotshunoslik ilmida ruhiyat mavzusida birinchilardan bo'lib tadqiqot olib borgan N.herneshevskiy psixologik tahlil haqida quyidagi fikrlarni aytdi.

Psixologik taxlil xilma-xil bo'lishi mumkin bir muallif asarida harakat qirralari ochib berishga erishsa boshqa bir xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush tasirini ko'rsatib boradi. Uchunchisi esa hatti harakatlarning his-tuyg'ular bilan aloqadorligini to'rtinchisi ehtiroslar tahlilini tasvirlaydi. Har bir badiiy asarning eng muhim vazifasi avvalo ezgulik . Umuminsoniy qadriyatlarni insonlar qalbida shakllantirish ,insonlarni tushunishga , qolaversa tushuntirishga ,kechirimlilikka, bag'rikenglilikka o'rgatadi. Taasufki jamiyatimizdagi ko'pgina muommolar ijtimoiy munosabatlarda kishilarning o'zaro bir-birlarini tushunmaganligidan kelib chiqadi. Adabiyotni sevgan, unga oshufta inson hech qachon , hech kimga yomonlik qila olmaydi hatto o'zi istagan taqdirda ham .

Bilamizki badiiy asardagi voqealar insonlar hayotida bo'lib o'tgan , yoki bo'layotgan voqealarni tasvirlaydi. Asardagi voqealar u yozilgan davr muhit jamiyat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Haqiqiy voqelikdan yiroqlashgan badiiy asar o'z jozibasini yo'qotadi . Odamlar ko'nglini emas , kitoblar javonini to'ldiradi . Yozuvchilar ko'p , shoirlar bisyor kitoblar esa sanoqsiz ,odadsiz. Ular orasida sahifalariga qo' tegmadan mutolaasi ming mashaqqat bilan o'qiladigan asarlar ham bor .Zotan muallif voqea hodisalarni shunchaki zarvulli so'zlar bilan tasvirlaydi .Mavzu keng asar nomi ajoyib.... Ammo o'quvchi o'qishda qiynaladi . Illi har qanday badiiy asarning ruhi jozibasi , hayotiyliigi undagi personajlarning xarakter xususiyatini muallif tomonodan xolis yoritib berilishidadir.

Buning uchun yozuvchi personajlar ruhiyatini bor murakkabligi bilan o'rgangandagina har ir qahramonni o'rnida o'zi yashasa ,o'ylasa, birga quvonsa , qayg'usiga sherik bo'lsa , og'riqlarini his qilsagina bu necha davrlar o'tsa ham umrboqiy chinakkam badiiy kashfiyot bo'lib qoladi. Psixologizm badiiy asarning muhim ammo yagona bo'lmagan mezoni sanaladi. Ulug' adib A.Qahhor uchun esa psixologizm „ Yozuvchi mahoratining muhim jixatidir” bunda yozuvchi qahramon ichki dunyosini o'z uslubi orqali yoritib beradi. Albatta har bir ijodkor turli tasvir vositalaridan foydalanadi .Jumladan ichki monolog nutqiy xarakteristika ,psixologik portet galyunsinasiya tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanadi Buning uchun badiiy psixologizm qonuniyatlarini yaxshi o'rganmog'I kerak, faqat o'rganishgina emas uni san'at darajasiga olib chiqishi lozim.

Psixologizmning dinamik , tipologik va analetik prinsiplari o'zaro farqlanadi . Psixologizmning dinamik prinsipida qahramon ruhiyati uning hatti – harakatlari mimika va qiliqlari ,gap so'zlari orqali obroz tasvirlanadi ,bu ko'proq dramatic asar uchun xos.

Tipologik prinsipda obraz uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit davr bilan bog'lab tasvirlanadi.



Analitik prinsipida esa qahramon ichki kechinmalari ,qalbidagi his tuyg'ulari tafakkur va mulohazasi o'y fikrlari , dinamikasi tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdulla Qahhor „Sarob” romani.2019 yil
- 2.Umirov X.'Badiiy psixologizm va ozbek romanchiligi Toshkent .1983
3. A.Qahhor ijodida badiiy psixologizm Toshkent 1999
- 4.XX ASR o'zbek hikoyasi antalogiyasi."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2016.
- 5.Abdulla Qahhor. "Dumli odamlar" hikoyalar to'plami."O'zbekiston"Toshkent 2018.

